Ikkinchi Jahon urushi faxriylari uchun Uzbekistan Airways’dan imtiyozli aviachiptalar

2023 7 May

Chegirma taqdim etiladigan shaxslar toifasi (imtiyozli yo‘lovchi):

- 1941-45 yillardagi urush qatnashchilari;
- 1941-45 yillardagi urush nogironlari;
- Urush yillarida fidokorona mehnati va beminnat harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;
- Natsistlar va ularning ittifoqchilari tomonidan yaratilgan getto kontslagerlari va boshqa qamoqxonalarning sobiq voyaga yetmagan asirlari;
- “Leningrad mudofaasi uchun” medallari yoki “Qamaldagi Leningrad aholisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan shaxslar;
- Armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmat qilgan harbiy xizmatchilar va sobiq SSSRni himoya qilish bo‘yicha fuqarolar urushi va harbiy harakatlar qatnashchilari hamda sobiq faxriylar;
- Sovet Armiyasining fuqarolik tarkibidan bo‘lgan shaxslar, Harbiy dengiz floti, sobiq SSSR ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari, Ikkinchi Jahon urushi yillarida armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlarda, shtablarda, muassasalarda to‘liq shtat lavozimlarida ishlagan, yoki ushbu davrda mudofaadagi ishtiroki armiya bo‘linmalarining sohadagi harbiy xizmatchilari uchun belgilangan imtiyozli shartlarda pensiya tayinlash uchun ish stajiga hisoblangan shaharlarda bo‘lgan shaxslar uchun;
- Sobiq SSSRni mudofaa qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish paytida yoki frontda bo‘lganligida kasallik natijasida olingan jarohatlar, kontuziya yoki ular natijasida vafot etgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va xotinlari;
- Antifashistik qarshilik harakatining sobiq a‘zolari;
- Ikkinchi Jahon urushi yillarida Qizil Armiya saflaridagi shaxslar lavozimiga o‘tkazilgan va amaldagi frontlar yoki harakatlanuvchi flotlarning operatsion zonalari manfaatlarini ko‘zlab vazifalarni bajargan maxsus kuchlarning sobiq xodimlari.

Imtiyoz yo‘lovchiga hamrohlik qiladigan 1-kishi uchun ham amal qiladi.

Chegirma turi:

- Imtiyozli yo‘lovchi uchun 1 ta bepul ekonom-klass chiptasi (barcha soliqlar va yig‘imlardan ozod, YQ/YR undirilmaydi) va hamrohlik qiluvchi shaxs uchun 1 ta ekonom-klass chiptasi (barcha soliq va yig‘imlardan ozod, YQ/YR undirilmaydi).

Tashuv yo‘nalishi:

- “Uzbekistan Airways” AJning barcha yo‘nalishlari O‘zbekistonga/O‘zbekistondan Rossiya Federatsiyasi, Gruziya va MDH davlatlari shaharlariga va ortga, shuningdek, ichki yo‘nalishlar bo‘yicha;

Imtiyozli aviachipta olish uchun asos:

- Imtiyoz olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma, harbiy guvohnoma;

Sotish davri:

- 2023-yil, 1-maydan 15-maygacha;

Tashuvning boshlanishi:

- 2023-yil, 1-maydan 15-maygacha;

Aviachiptani amal qilish muddati:

- 1 oy;

Tashuv turi:

- Borish va qaytish uchun;

Qaytarish:

- To‘lovlarni yig‘masdan qaytarishga ruxsat beriladi;

Parvoz vaqti va yo‘nalishini o‘zgartirish:

- Tashish boshlangan sana va aviachiptaning amal qilish muddatini hisobga olgan holda, shuningdek aksiya doirasidagi marshrutlar doirasida tekinga ruxsat beriladi;

Boshqa talablar:

- Aviachiptalar faqat “Uzbekistan Airways Sales” filiali va uning O‘zbekiston aeroportlarida joylashgan savdo shaxobchalarida, shuningdek, xorijdagi savdo ofislarida taqdim etiladi;
- Imtiyozli yo‘lovchilar uchun aviachiptalarni rasmiylashtirish qat‘iy belgilangan namunadagi guvohnoma taqdim etilgandan keyin amalga oshiriladi;
- Imtiyozli yo‘lovchini hamrohlik qiluvchi shaxs bilan kuzatib borishda aviachiptalar faqat bitta bronda beriladi;
- Jo‘nash sanasi yoki marshrutni o‘zgartirish/aviachipta pulini qaytarish faqat imtiyozli yo‘lovchi va hamrohlik qiluvchi shaxs uchun bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi;